

GOSPITAL MAKTAB PEDAGOGLARINING MAXSUS TA'LIM JARAYONINI TASHKIL QILISHDAGI O'RNI

Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna,

*Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi
Ambulator filiali pedagog xodim, Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchi*

Annotatsiya. Umri davomida inson boshiga turli mushkulotlar tushadi, turfa xil dardlar bilan sinaladi. Ba'zan o'sha mushkulotlar farzandlari boshiga tushishi orqali ota-ona irodasi sinaladi. Bu borada ota-ona ayniqsa, hali tajribasi yetishmaydigan yosh ota-onalar qo'llab-quvvatlash va kerakli maslahatlarga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham ularga yaqin ko'makchi sifatida yaxshi psixologlarni va psixologik metodlarni tavsiya qilish zarur. Bu bilan ularning dardiga ruhan dalda bo'lishimizga sabab bo'ladi. Ushbu maqolada gospital ta'lim pedagogik jarayonni tashkil qilishda o'quvchini darsga psixologik tayyorlash va noan'anaviy ta'lim usullari asosida fanlarga bo'lgan qiziqishini, u orqali esa hayotga va bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: kasallik, ota-ona, terapiya, bola, farzand, "Mehrli maktab", gospital ta'lim, individual dars, gibrud usulidagi sinf, turli fanlar, didaktik o'yin, noan'anaviy ta'lim usullari.

Аннотация. На протяжении жизни человек сталкивается с различными трудностями и испытывается разнообразными невзгодами. Порой эти трудности ниспосылаются через детей, тем самым проверяя стойкость и волю родителей. В таких обстоятельствах родители — особенно молодые, не имеющие достаточного опыта, — остро нуждаются в поддержке и квалифицированных советах. Именно поэтому крайне важно рекомендовать им грамотных психологов и эффективные психологические методы в качестве надёжных помощников, способных стать духовной опорой в их горе. В настоящей статье рассматриваются вопросы психологической подготовки учащихся к занятиям в рамках организации педагогического процесса гопитального обучения, повышения интереса к учебным предметам на основе нетрадиционных методов обучения, а через это — усиления стремления к жизни и получению знаний, расширения кругозора и формирования навыков самостоятельного мышления.

Ключевые слова: болезнь, родители, терапия, ребёнок, дитя, «Школа с заботой», гопитальное обучение, индивидуальный урок, класс в гибридном формате, различные учебные дисциплины, дидактическая игра, нетрадиционные методы обучения.

Abstract. Throughout life, a person encounters various hardships and is tested by a multitude of trials. At times, these hardships manifest through children, thereby putting the resilience and willpower of parents to the test. In such circumstances, parents — especially young and inexperienced ones — are in great need of support and sound guidance. It is therefore essential to recommend skilled psychologists and effective psychological methods to serve as reliable allies, offering them spiritual comfort in their time of sorrow. This article examines the psychological preparation of students for lessons within the framework of organizing the pedagogical process of hospital education, the enhancement of interest in academic subjects through non-traditional teaching methods, and — by extension — the cultivation of a desire for life and learning, the broadening of worldview, and the development of independent thinking skills.

Keywords: illness, parents, therapy, child, offspring, "School of Care", hospital education, individual lesson, hybrid-format classroom, various academic disciplines, didactic game, non-traditional teaching methods.

Kirish. Yurtimizda ijtimoiy-siyosiy sohada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, avvalo, Vatan taqdiri va xalq ravnaqi uchun mas'ul bo'lgan yangi avlodni tarbiyalash masalasiga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqil

davlatimizning barqaror rivoji, uning intellektual salohiyati va raqobatbardoshligi bevosita yoshlarning bilim darajasi, dunyoqarashi hamda ijtimoiy faolligiga bog'liqdir. Shu bois ta'lim-tarbiya tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro talablarga mos ravishda takomillashtirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta'lim-tarbiya tizimi va ilm-fan sohasini rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama barkamol, yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yondashuv ta'limning uzluksizligini ta'minlash, har bir bolaning sifatli bilim olish huquqini kafolatlash hamda ularning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim xizmatlarini tashkil etishga qaratilgan davlat siyosatida yaqqol o'z ifodasini topmoqda.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 5-may 2022-yildagi 234-sonli "Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.03.2023 yildagi 134-son "Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo'lgan bolalarga ta'lim va tarbiya berish tizimini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlariga muvofiq, bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalarga maktabgacha ta'lim- tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun gospital ta'limga asoslangan "Mehrlil maktab" davlat ta'lim muassasasi va uning filiallari tashkil etildi. Bu muassasa yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzurida tashkil etilgan. Hozirgi kunda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Farg'ona va Samarqand viloyatlaridagi filiallari ham o'z faoliyatini olib bormoqda.

Gospital ta'lim – uzoq muddatli davolanishda bo'lgan va sog'lig'i sababli ta'lim muassasalariga bora olmaydigan bolalar uchun ta'limni tashkil etish bilan bog'liq pedagogikaning bo'limidir. "Mehrlil maktab" ta'lim muassasasida darslar o'quvchining umumiy holatidan kelib chiqib, yakka (individual) tartibda yoki gibrid usulida guruh (sinf)da tashkil qilinadi.

Yakka (individual) tarzda dars mashg'ulotini tashkil etish bu – shifokor xulosasiga ko'ra o'quvchining sinfga chiqishiga ruxsat berilmagan holatlarda pedagog xodim uning xonasiga borib darsni tashkil qilishidir[4]. Gibrid usulida dars mashg'ulotini tashkil etish esa yoshi va sinfi bir-biriga yaqin bo'lgan o'quvchilarni bir vaqtda dars mashg'ulotlariga jalb qilishdir. Bunda tibbiy -gigiyenik qoidalarga (barcha o'quv jihozlari dezinfeksiya qilinishi, hamma o'quvchilar va o'qituvchida tibbiy niqob bo'lishi, antiseptikdan tez-tez foydalanish va h.k) to'liq amal etilgan holda dars jarayoni tashkil etiladi[2].

"Mehrlil maktab" mehr- muhabbatga to'la shifo va ilm o'chog'idir. Odatda mehr- muhabbat ifodasi samimiylik, shirinso'zlik bilan o'quvchilarga ruhan dalda berish orqali

ularning hayotga va ilm olishga bo'lgan ishtiyoqini oshirishda namoyon bo'ladi. Bu jarayonda psixologik yondashuv va o'qituvchi mahorati cheksiz o'rin tutadi. Bunday qudratni pedagog mahoratisiz tasavvur etish qiyin[5].

Tadqiqot metodlogiyasi. Kasallik yoki inson salomatligining o'zgarishi buning turli yosh bosqichlarida bo'lishi mumkin, lekin hech qachon cheklab o'tmaydi. Ya'ni ob-havo yoki inson yashayotgan muhitning o'zgarishi turli tabiiy va hayotiy muammolarning paydo bo'lishi, albatta biror kasallikni vujudga keltiradi, bu tabiiy holat. Kasal bola, qoida tariqasida, sog'lom boladan farq qiladi. uning kayfiyati o'zgaradi, u tushkunlikka tushishi, asabiylashishi, xirillashi, bezovtalanishi, bezovtalanishi va kamdan-kam hollarda beparvolik qilishi mumkin. Biroq, xafa bo'lishi mumkin bo'lgan nafaqat hissiy holat. Ba'zida kasallikning og'irligi, uning eksklyuzivligi, davolanishning mumkin emasligi yoki aksincha, uning ahamiyatsizligi va beparvoligi haqida fikrlar paydo bo'ladi va davom etadi. Shu munosabat bilan, davolanishga bo'lgan munosabat adekvat va hatto qaram bo'lib chiqadi yoki protsedura, manipulyatsiyava dori-darmonlarni rad etish va rad etishdir. Ko'pgina bolalar xatti-harakatlarida muammolarga duch kelishadi[1]. Ular o'ynashni to'xtatadilar, kattalar va bolalar bilan bevosita aloqa yo'qoladi. Bolalar birgalikda o'ynashdan va zavqlanishdan xursand bo'lmaydilar. Ba'zida aloqalarda yanada aniq buzilishlar yuzaga keladi, bu esa endi tengdoshlari va oqsoqollari bilan muloqot qilishga intilmaydigan kasalbolalarning yolg'izlanishiga olib keladi. Ularga kasallik qo'ygan cheklovlar yuklanishi mumkin. Ko'pinchabolalar rejimga rioya qilishdan bosh tortadilar, oqsoqollarga bo'ysunmaydilar va o'jar bo'lishadi. Ularning xulq-atvori o'yin-kulgilar, ba'zan esakutilmagan, nomaqbul harakatlar bilan buziladi.

Muhokama va natijalar. Bola kasal bo'lganida onaning ko'ngliga hech narsasig'may qoladi. Bolani davolash uchun qimmat dorilarga pulini ham, shifokorlar qabuliga tushish uchun vaqtini ham ayamaydi. Bolani ona ham davolashi mumkin. Buning uchun faqat mehrga to'la qalb talab etiladi, xalos.

“Mehr omili”. Ushbu oddiy so'zlar bilan ustoz bola organizmini foydali vitamin bilan to'ydira oladi: "Ilm sening hayotingga kerakli manba. Sen biz uchun qadrlisan. Men seni bilim bilan davolayman, bu shifo topishingda ko'makchidir. Biz pedagoglar seni juda yaxshi ko'ramiz!"

- Mehr-terapiya. Yengil kasalliklarda davo vositasi: "Sen juda kuchlisan va sog'lomsan. Sening yuraging, tanang va qorning kuchli va sog'lom. Sen yaxshi ovqatlanasan va sog'lom rivojlanasan. Sen juda kam kasal bo'lasan."

- Psixologik ko'mak. Bolaning psixikasi sinmasligi uchun unga ozuqa berib turish lozim. "Sen yoqimli bolasan. Yaxshi uxlaysan. Asabiy emassan. Sabr-toqatli va aqlli bolasan. Tiling yaxshi rivojlangan. Miyang yaxshi ishlaydi. Senda hammasi yaxshi bo'ladi."

- Kuchli zarba. Bola qattiq kasal bo'lganida dori vositalaridan tashqari onaning mehr va e'tibori nihoyatda kerak. Ona o'zining shirin so'zu-mehri bilan kasallikka zarba berishi

lozim. "Seni juda yaxshi ko'raman. Sen bizga keraksan. Kasalliklaring yo'q bo'lib ketsin. Kasalligingni olib tashlab yuboraman. Qiynalغانlaringni olib unutib yuboraman. "

Bola ota-onasidan hadeb tanbeh eshitaversa, kasal bo'lishi oson bo'lib qoladi. Ota-onasi ishonmagan, urishgan bolani tuzalishi qiyinroq kechadi.

Ota-ona bolaga charchov, alam va ranjish ko'zlari bilan qarasa, bolaning hayotida omadsizliklar va kasalliklar ko'p yuz beradi. Bu tasdiqlangan psixologik faktor hisoblanadi. Shu tariqa o'quvchini dars jarayoniga tayyorlanadi va bilimlar mamlakatiga sayohat uyushtiriladi.

ILM san'ati- insonda yuksak ma'naviyatni shakllantirishning eng ta'sirchan vositasi. Insondagi ismsiz tuyg'ular, nozik kechinmalar, ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib, qo'l bilan ushlab, til bilan totinib bo'lmaydigan ruhiy holat jilvalarini faqat so'z yordamida ifoda etish mumkin.

Gospital ta'limning dars jarayonini qiziqarli tashkil etishda didaktik o'yin va noan'anaviy ta'lim usullaridan foydalanish ta'lim jarayoni samaradorligi, o'quvchilarning barcha fanlarga bo'lgan qiziqishi va faolligini oshirishga yordam beradi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtiriladi.

Quyida gospital ta'limning darslarida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi didaktik o'yinlar va noan'anaviy ta'lim usullari bilan tanishamiz.

"Kun qahramoni" o'yini

Stol ustiga bir qancha asarlar terib qo'yiladi. O'qituvchi shu asarlardan birining qahramoniga ta'rif beradi. O'quvchilar shu belgilar asosida qaysi qahramon haqida so'z borayotganligi va u qaysi asar qahramoni ekanligini topishlari kerak bo'ladi. Qahramonni hayotda turli qiyin vaziyatlarni boshdan kechirgan, to'siqlarni yengib o'tib o'z maqsadiga erishganini tanlash maqsadga muvofiq. Chunki bunday qahramonlar gospital maktab o'quvchilariga kasallikni yengib, o'z orzu-maqsadlariga erishishlari uchun kuchli motivatsiya vazifasini bajaradi. Bu o'yinni gospital ta'limning ham individual, ham guruh darslarida qo'llash mumkin.

1-variant: U to'g'ri so'z, halol, mard, topqir va tirishqoq bo'lgani uchun unga hech qanday yovuz kuch bas kelolmaydi. (Javob: "Botir tikuvchi" ertagidagi Gans)

2-variant: Ular barcha qiyinchiliklarni yengib o'tning bo'lig'i, suvning tinig'i bor joyni qidirib topdilar. (Javob "Susambil" ertagi qahramonlari)

3-variant: Ulardan biri sherni, ikkinchisi ajdarni, uchinchisi o'g'rilarni yengadi. (Javob: "Uch og'a-ini botirlar" ertagidagi uch oga'-ini)

"to'g'ri jumla" o'yini

Bu o'yin suratlar asosida o'tkaziladi. O'qituvchi TABIIY FANLAR darslarida hayoti va ijodi o'rganilgan ma'lum rasm yoki suratini tasvirlab berish jarayonida mavzuga tegishli bo'lgan jummalarni ham ishlatadi. O'quvchilar ziyraklik bilan shu jumlaning topishlari lozim. O'quvchilardan bu o'yin davomida ziyraklik, sinchkovlik, kuzatuvchanlik va diqqat talab qilinadi. Ya'ni ular suratni kuzatish bilan birga tinglab

turadilar. Har bir noto'g'ri jumlaning topa bilishi, ularning sinchkovligini, o'ziga bo'lgan ishonchini va darsga qiziqishini orttiradi. Bu o'yindan ham individual dars mashg'ulotida, ham guruh darslarida foydalanish mumkin.

“U nima qilyapti?” (“pantamimo”) o'yini

O'quvchilardan biri bolalar oldiga chiqib, biror badiiy asar qahramonining harakatlarini ovozsiz harakatlar orqali ko'rsatib tengdoshlariga yetkazadi.

O'quvchilar jamoasi birgalikda uning harakatlarini izohlab berishlari lozim. Bunday o'yin adabiyot darslarida o'quvchilar nutqini va ziyrakligini o'stirish va zeriktirmaslik uchun o'tkaziladi.

“Kecha va kunduz” o'yini

O'qituvchi doskaga ikki yoki undan ortiq ijodkor nomini yozadi. O'quvchilar o'qiganlaridan so'ng “Tun” deb buyruq beradi. Bolalar ko'zlarini yumib oladilar. O'zlarini uxlaganga soladilar. O'qituvchi so'zlardagi biror harfni yoki bo'g'inlarni almashtirib qo'yadi. “Kun” degan buyruqdan keyin o'quvchilar ko'zlarini ochadilar va qanday o'zgarishlar bo'lganligini aniqlaydilar. Bu o'yinni ham gospital ta'limning barcha shaklida qo'llash mumkin

“Juftini top” o'yini

Bu o'yinni o'quvchilar diqqatini jamlash maqsadida matematika darslarida bo'ladigan dam olish daqiqalarida o'tkazish mumkin. O'qituvchi formula nomlari yozilgan qog'ozlarni stol ustiga teskari qilib qo'yadi. O'quvchilardan biri qog'ozlardan bittasini tanlab oladi va shu qog'ozga qarab unda nomi yozilgan formulani shunday topishi kerakki, qolgan o'quvchilar gap qaysi formula haqida borayotganligini darrov tushunib javob berishlari kerak. Bu o'yinni faqat guruh darslarida qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Nihol o'stiramiz” usuli. Bu usuldan barcha fanlarga qiziqtirish maqsadida foydalaniladi. Bu orqali yangi mavzuni mustahkamlash mumkin. Bunda dars boshida o'quvchilarga 1 donadan oq qog'oz beriladi. O'quvchilar bu usul asosida yangi mavzu bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlashadi. O'quvchilar oq qog'ozga nihol chizadi va niholni parvarishlab o'stiradi. O'quvchilar yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlari bilan niholni parvarishlaydi. Har bir olgan ma'lumot bilan niholda bitta shox paydo bo'ladi. Shu tariqa nihol bir daraxtga aylanadi va o'qituvchiga o'quvchilar yangi mavzuni qay darajada o'zlashtirganini aniqlashga qulaylik yaratadi. Bunda o'quvchilarning tasviriy san'at faniga bo'lgan qiziqishi ortadi, daraxtni qay darajada tasvirlashi orqali ularning fikrlashini rivojlantirib boradi.

Yangi ma'lumotlarni o'quvchilar qay darajada eslab qolganini, shu bilan bir qatorda uning yaratuvchanlik, mehnatsevarlik qobiliyatlari shakllanib boradi. O'quvchilarning tabiatga bo'lgan mehr-muhabbati ortib boradi.

“Aralash tuzulma” usuli

Bu bo'laklarni yig'ib butun hosil qiluvchi usuldir. Bu usuldan foydalanish uchun so'zlar oldindan tarqatmalarga, ya'ni kartochkalarga yozilgan bo'lishi kerak. O'quvchilar

soʻzlar ketma-ketligini toʻgʻri joylashtirib, berilgan topshiriqni bajarishlari lozim. Bundan tashqari biror topshiriqqa oid rasmlarni qirqib boʻlaklab qoʻyilsa, oʻquvchi uni yigʻib, rasm asosida maʼlumotlar berishi mumkin. Gospital taʼlimning individual shaklida ham, guruh shaklida ham bu usuldan samarali foydalansa boʻladi.

Xulosa oʻrnida shuni aytib oʻtish joizki, gospital taʼlimning dars jarayonlarida qoʻllash uchun tavsiya qilingan didaktik oʻyinlardan foydalanishda qatʼiy chegara mavjud boʻlmay, ularni barcha sinflarga moslashtirib foydalanish mumkin. Didaktik oʻyinlar oʻquvchilarning bilim olishga boʻlgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki boʻladi. Ayniqsa, oʻquvchilarning oʻz kasallik holatlarini unutib, hayotga boʻlgan intilishlarini oshishiga, dunyoqarashlarini kengayishiga, hayotiy voqealar orqali har bir sodir boʻlgan voqelikning yaxshi tomonini koʻra olish va toʻgʻri xulosa chiqarishiga samarali taʼsir koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 234, 134-- sonli qarorlari
2. Sh.Mirziyoyev Oʻzbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis
3. palatalarining qoʻshma majlisida soʻzlagan nutqi.
4. Isaev, D.N. Bolalar tibbiy psixologiyasi. D.N. Isaev. -Sankt-Peterburg: Rech, 2004 yil
5. Karson, R. Anormal psixologiya. R. Karson, S. Mineka.- Sankt-Peterburg: Peter, 2004.
6. A.Safarov, Q.Bahromov Noanʼanaviy darslar va taʼlimning interfaol usullari. Buxoro. 2004

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934